

ZULFIYA SHE'RIYATIDA KO'CHMA MA'NOLI SO'ZLAR**Axmedov Salohiddin Sahobiddin o'g'li****Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti**
salohiddinaxmedov19941711@gmail.com,
+99877-707-94-01**<https://doi.org/10.5281/zenodo.18016591>**

Xalqimiz ardoqlagan, bir so'z bilan aytganda she'riyatning usta vakilasi Zulfiya o'zining she'rlarida tom ma'noda yuksak cho'qqilarga erishgan. Chunki shoira she'rlarini mutolaa qilar ekanmiz uning so'zlardan qanchalik mahorat bilan foydalanganligini guvohi bo'lamiz. Shoira she'riyatda iboralardan, tasviriy ifodalardan keng foydalanish bilan bir qatorda, metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, ramz, kinoya kabi bir necha tasviriy vositalardan ham unumli foydalangan. Shoira she'riyatida asosan metaforalarga alohida urg'u berib o'tilgan.

Metafora—grekcha “ko'chirish” degan lug'aviy ma'noni bildirib, biror narsa-buyum, shaxs yoki harakatning nomini boshqa bir narsa buyum, shaxs yoki harakatiga o'xshashlik asosida ma'no ko'chishidir.

Metafora orqali ma'no ko'chishi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Metafora harakat o'xshashligi natijasida yuzaga chiqishi mumkin.*Oqshom edi, oydin ko'prikda,**Barno qiz-u yigit turardi.**Oyni kutgan oqshomgi ko'kda,**Beshik-beshik bulut yurardi.*

Ushbu bandning 4-misrasida keltirilayotgan “bulut yurardi” so'zi harakat o'xshashligi asosida ma'no ko'chishini yuzaga chiqarmoqda. Aslida yurmoq fe'li shaxsga nisbatan keng qo'llaniladi. Shuning bilan birgalikda she'riy misrada jonlantirish san'ati ham yuzaga kelmoqda.

*Oy suzadi, yel sari mayin,**Ikki qalbni yoqar bir otash.**Yoniq dilning baxtiyor nayin,**Yutmoq bo'lur sukut jafokash.*

Yuqorida berilgan parchada nafaqat harakat o'xshashligi, balki, holat o'xshashligi ham keltirilgan. “Oy suzadi” so'zi harakat o'xshashligiga misol bo'lsa, “mayin yel”, “yoniq dil”, “baxtiyor nay”, “jafokash sukut” kabi so'z birikmalari holat o'xshashligi asosida ma'no ko'chishiga misol bo'la oladi. Shoira to'rtinchi misrada hatto inversiya hodisasini ham qo'llab, she'rning badiiy ekspressiv ta'sir qilish doirasini yanada kuchaytirgan.

2. Metafora hodisasi yana quyidagi hollarda, ya'ni mavhum ot+aniq ot, mavhum ot+sifat yoki sifat+aniq ot shakllarida ham uchraydi.*Sizdagi qalb ko'zi, mo'yqalqam tig' uchi,**Asrlar tubiga kiradi jur'atli.**Tafakkur, tasavvur atalmish cho'g' kuchi,**Tiriltar tangri ham unutgan suvratni.*

Yuqoridagi she'riy parchaning birinchi misrasida mavhum ot+aniq ot tipidagi “qalb ko'zi” birikmasi uchinchi misradagi aniq ot+ mavhum ot tipidagi “cho'g' kuchi” birikmalari metaforaning yana bir betakror ko'rinishini yuzaga chiqarmoqda.

Yaxshiki yigitda yuragi bor,

*U sevsa hech qachon yonmas yashirin.
Sevging to'g'risida o'zing ochding so'z,
Ey ko'zi qop-qora, so'zlaring shirin.*

Ushbu she'riy parchaning so'nggi misrasida "so'zlari shirin" birikmasi orqali metaforik ma'no hosil qilingan. "Shirin" leksemasi aslida hayotdagi eng totli noz-ne'matlariga nisbatan ishlatiladi. Misradagi "shirin" leksemasi badiiy bo'yoqdorlikni oshirish bilan bir qatorqa o'quvchiga ta'sir qilish doirasini yanada kengaytirgan.

*Baxtiyor sevgini kuylardi sozim,
O'lim xanjariga tegdi-yu sindi.
Hijron faryodiday sovuq ovozim,
Nahot, lirikaning yolqini tindi!*

Misralarda bir emas, balki, bir nechta metaforik ma'no ko'chishlarini kuzatish mumkin. Masalan, "baxtiyor sevgi", o'lim xanjari", "hijron faryodi", "sovuq ovoz", "lirika yolqini" kabi til birliklari orqali metaforik qator hosil qilishimiz mumkin. Ushbu birliklar bir-biriga shunchalik mutanosib tarzda qo'llanganki, she'rning misralari yanada ko'rkamlashgan. Masalan, hijron va faryod so'zlari yonma-yon ishlatilmoqda. Bizga ma'lumki, hijron azobi, qiynayotgan kishigina faryod qilishi mumkin. Bu til birligiga mos ravishda "sovuq ovoz" birligi "sovuq" leksemasi "ko'ngilga yoqmaydigan, xush kelmaydigan, qo'pol, dag'al" ma'nolarini ifodalaydi. Aynan faryod chekayotgan insonning ovozi sovuq, qo'pol tarzda chiqishi sir emas.

Shoiraning she'rlarida yuqoridagi kabi metaforik qatorlar, birliklar ko'plab uchraydi. Aynan mana shu vositaning o'zi shoira she'rlarning salmog'ini naqadar yuksak ekanligini ifodalaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Qurbonova M.M., Raupova L.R., Abuzalova M.Q., Yo'ldosheva D.N. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. –Buxoro.: "Durdona" nashriyoti. 2021, 465 bet.
2. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili. O'quv qo'llanma. –Toshkent.: "Nizomiy nomidagi TDPU" nashriyoti. 2009, 303 bet.
3. Zulfiya. Saylanma, Tong bilan shom aro. –Toshkent.: Sharq 2006, 168 bet
4. Zulfiya. Asarlar, Shalola. III jildlik I jild. –Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1985, 416 bet